

ELEKTRON PULLAR XALQARO HUQUQ SUBYEKTLARINING OBEKTI SIFATIDA

¹Abdullayev Bekzod Murod o'g'li,

²Akramov Akmaljon

²Ilmiy rahbar,

^{1,2}Toshkent Davlat Yuridik Universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7409635>

Annotatsiya: ushbu maqolada xalqaro huquqda elektron pullarning aylanmasi, uning kamchiliklari, yutuqlari va kelajakka qaratilgan imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada elektron pullardagi kamchiliklarni bartaraf etish haqidagi takliflar ham keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: pul muomilasi, to'lov tizimi, emitent, pullarning chiqarilishi, pullardan foydalanish, pullarni qoplash, yurtimizda kuzatilayotgan yangiliklar.

Bugun dunyo aholisining deyarli 70 foizidan ortiq qismi raqamli texnologiyalardan keng foydalanishmoqda. Bu esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga jadal kirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida elektron tijoratning rivojlanishi, turli to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi va kuchayishi, chakana to'lovlar bo'yicha tranziksion xarajatlar qisqartirilishini, shuningdek, to'lovlarni amalga oshirishda moliyaviy institutlarning vositachiligini talab etmaydigan innovatsion to'lov vositalarining joriy qilinishini taqozo etdi.

O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi elektron pullar muomalasini, jumladan, elektron pullarni chiqarish, foydalanish va ularni qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratib berdi. Ushbu qonun asosida "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2020-yil 29-aprelda 3231-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Ushbu hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomilasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Unda elektron pullar tizimiga oid asosiy tushunchalar, shu jumladan, "ayirboshlash operatsiyasi", "bir va ko'p emitentli elektron pullar tizimi", "oldindan to'langan karta", "elektron pullar tizimining agenti", "elektron hamyon" va shu sohaga oid boshqa terminlarga batafsil tushuntirishlar berilgan.

Shu o'rinda emitent nima degan savol tug'iladi. Emitent nima? Emitent – bu o'z faoliyatini rivojlantirish va moliyalashtirish uchun qimmatli qog'ozlarni

chiqaradigan (emissiya qiluvchi) tashkilot hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki va yoki boshqa banklar elektron pullarning emitentidir hisoblanadi.¹

Qoidaga ko'ra, emitent, operator, elektron pullar tizimining agenti, elektron pullar egasi, shuningdek, emitent bilan shartnoma tuzgan banklar, to'lov tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar elektron pullar tizimining sub'ektlari hisoblanadi. Bunda elektron pullar tizimining ishlashini ta'minlaydigan bank va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan to'lov tashkiloti – elektron pullar tizimining operatori hisoblanadi. Emitent yoki emitent bo'lmagan boshqa bank operator bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullar tizimining hisobkitob banki sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Ta'kidlash joizki, emitent o'z faoliyatini boshlashi uchun, eng avvalo, elektron pullarni chiqarish va realizatsiya qilishi to'g'risida Markaziy bankka belgilangan shakldagi xabarnoma va unga ilova sifatida operator bilan tuzilgan shartnoma hamda elektron pullar tizimi sub'ektlari bilan tuziladigan shartnomalar namunalarini yuborishi zarur hisoblanadi.

Elektron pullarning subyektlari quyidagilar hisoblanadi:

1. elektrin pullar tizimi operatori;
2. elektron pullar emitenti;
3. hisob-kitob banki;
4. jismoniy shaxslar;
5. yuridik shaxslar (merchant) va yakka tartibdagi tadbirkor.²

Ko'rib turganizmizdek yuqorida sanab o'tilgan subyektlarning oxirigi 3 ta punkti elektron pul egalari hisoblanadi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjat bilan elektron pullar tizimida tranzaksiyalarni operator tomonidan elektron pullar tizimi qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu qoidalar operator va emitent o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan tasdiqlanadi. Ko'p emitentli elektron pullar tizimida esa ushbu qoidalar har bir emitent bilan kelishilgan bo'lishi talab etiladi.

Elektron pullarning chiqarilishi

Qonun-hujjatlarga muvofiq, elektron pullarning chiqarilishi emitent tomonidan jismoniy shaxs yoki elektron pullar tizimining agentidan qabul

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-4803632>

² <https://uncitral.un.org/en/texts/payments>

qilingan pul mablag'lari doirasida elektron pullar tizimi qoidalarini hamda elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

Emitent tomonidan elektron pullarning chiqarilishi uchun jismoniy shaxs naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda pul mablag'larini taqdim etishi zarur. Ushbu pul mablag'lari emitent tomonidan hisob-kitob bankida ochilgan maxsus hisobvaraqaqa kirim qilinishi ta'minlanadi. Elektron pullarni jismoniy shaxsga va elektron pullar tizimining agentiga realizatsiya qilish elektron pullar tizimi tomonidan har bir elektron pullar egasi uchun yaratilgan elektron hamyonga emitentdan sotib olingan elektron pullarni kirim qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Emitent yoki operator bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullar tizimining agenti elektron hamyonga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga ushbu pullarni realizatsiya qilish yoki ularni qoplash maqsadida elektron pullarning nominal qiymati bo'yicha uning egasi bo'lgan jismoniy shaxsdan sotib olishi mumkin.

Elektron hamyonni to'ldirish ikki xil yo'l orqali amalga oshiriladi:

1. naqd pul (bankomat, bank kassalari, POS-terminal);
2. va naqd pulsiz (HUMO va UZCARD kartalari, bank o'tkazmalari, elektron hamyondan pul o'tkazish va boshqalar).

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi hududida emitent tomonidan chiqariladigan elektron pullar faqat milliy valyutada nominallashtirilgan bo'lishi shart hisoblanadi.

Emitent va elektron pullar tizimining agenti tomonidan elektron pullarni chiqarishda uning egasiga elektron pullarni realizatsiya qilinganligi va elektron pullarning egasi elektron pullarni sotib olganligini tasdiqlovchi hujjat (kvitansiya) yoki boshqa tasdiqlovchi hujjat qog'oz shaklda yoki elektron shaklda taqdim etiladi. Mazkur kvitansiyada ko'rsatilishi majburiy bo'lgan rekvizitlar quyidagilar hisoblanadi.

- agentlar, emitentlar va operatorlarning nomi;
- operatsiyaning amalga oshirilgan sanasi hamda vaqti;
- amalga oshirilgan operatsiyaning tartib raqami;
- realizatsiya qilingan elektron pullarning qiymati;
- elektron pullar egasiga tegishli bo'lgan elektron hamyonning identifikatsiya raqami;
- undiriladigan vositachilik miqdori ko'rsatilishi shart hisoblanadi.

Elektron pullardan foydalanish

Qoidaga ko'ra, elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs elektron pullardan to'lovlarni va elektron pullar tizimining qoidalarida belgilangan

hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan shartlar asosida egasidan elektron pullarni uchinchi shaxsga o'tkazish orqali boshqa operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida foydalanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda faqat respublikamiz hududida chiqarilgan elektron pullar qabul qilinishi belgilangan.

Elektron pullar tizimida har bir elektron pullar egasiga mazkur tizim qoidalari, elektron pullarni chiqarish, foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnoma hamda emitent va operator o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq elektron hamyon shakllantiriladi yoki oldindan prepaid card (ya'ni, to'langan karta) ko'rinishida emitent, operator yoki elektron pullar tizimining agenti tomonidan beriladi. Oldindan to'lanadigan karta (prepaid card) – bu shaxsiylashtirilmagan to'lov vositasi hisoblanib, bank hisobvarag'iga bog'lanmagan holda oldindan kirim qilingan elektron pul mablag'laridan foydalanish imkonini beruvchi karta hisoblanadi.

Elektron hamyon turlari quyidagilardan iborat:

1. elektron pul egasi (jismoniy shaxs) ning identifikatsiya qilinmagan elektron hamyoni;
2. elektron pul egasi (jismoniy shaxs yoki elektron pul tizimi agenti) ning identifikatsiya qilingan elektron hamyoni;
3. YATT yoki yuridik shaxs uchun maxsus elektron hamyon.

Operator elektron pullarni ayirboshlash operatsiyalarini turli elektron pullar tizimlari hamda ko'p emitentli elektron pullar tizimi doirasida amalga oshirishi mumkin. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi tomonidan chiqarilgan chet el valyutasida nominallashtirilgan elektron pullarni ayirboshlash operatsiyalari mazkur sub'ekt bilan shartnomasi mavjud bo'lgan taqdirda emitent tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Elektron pullar egasi tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarga to'lovni amalga oshirish maqsadida elektron puldan foydalanishi mumkin. Bunda emitent yoki operator tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarga maxsus elektron hamyonlar shakllantiriladi. Ushbu elektron hamyonlarga faqat realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun elektron pullarni, keyinchalik bank hisobvaraqlariga ularning nominal qiymatiga teng bo'lgan pul mablag'larini o'tkazish maqsadida qabul qilinadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarning maxsus elektron hamyonlaridagi elektron pullar mazkur tizimda qayta realizatsiya qilinishiga yo'l qo'yilmasligi qonun hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan.

Elektron pullarni qoplash

Emitent elektron pullar egasi tomonidan taqdim qilingan elektron pullarni mazkur tizim qoidalari hamda emitent va elektron pullar egasi o'rtasida tuzilgan elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va ularni qoplash to'g'risidagi shartnomaga muvofiq naqd pulga almashtirish yoki naqd pulsiz mablag'larni elektron pullar egasining bank hisobvarag'iga kirim qilish orqali qoplaydi. Bunda emitent tomonidan:

1. elektron pullar egasi – jismoniy shaxsning bank hisobvarag'iga tegishli pul miqdori kirim qilingan yoki unga naqd pul mablag'i berilgan paytdan boshlab;
2. elektron pullar egasi – yakka tartibdagi tadbirkor va yuridik shaxsning bank hisobvarag'iga tegishli mablag' kirim qilingan paytdan boshlab elektron pullar qoplangan hisoblanadi.

Emitent tomonidan elektron pullarni qoplash operatsiyasi amalga oshirilganligi to'g'risida elektron pullar egasiga qog'oz yoki elektron shaklda tasdiqlovchi hujjat (kvitantsiya) beriladi. Shunday qilib, naqt va elektron pullar elektron pul tizimi operatori, hisob-kitob banklari, elektron pullar emitenti, shunday pul egalari orasida pul aylanmalarini hosil qiladi. Bunday aylanmalar ba'zi adabiyotlarda "axborotlar almashinuvi" ko'rinishida kelgan.

Shu o'rinda e'tibor qaratish kerakki, emitent elektron pullarni chiqarish bo'yicha faoliyatini tugatadigan taqdirda, kamida o'ttiz kun oldin Markaziy bankka mazkur belgilangan shaklda xabarnoma yuboradi va bu haqida o'zining rasmiy vebsaytida e'lon qilishi, shuningdek, elektron pullar egalarini va elektron pullar tizimining boshqa sub'ektlarini ommaviy axborot vositalari, jumladan, elektron vositalar orqali mazkur faoliyatni tugatayotganligi haqida xabardor qilishi zarur.

Agar emitent tomonidan belgilangan muddat yakunlangandan so'ng elektron pullar egasi tomonidan murojaat qilinmagan taqdirda, ularning elektron hamyonidagi elektron pullari emitent tomonidan majburiy ravishda qoplanadi. Emitent tomonidan majburiy ravishda qoplanganidan keyin elektron pullar egalari belgilangan tartibda shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki ularga oldindan yuborilgan kodli ma'lumotni taqdim etish orqali pul mablag'larini olishlari mumkin hisoblanadi.

Shu bilan birga, hujjatda elektron pullar tizimida xavfsizlikni ta'minlash va risklarni boshqarish borasida ham emitent va operator tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar batafsil yoritilgan bo'ladi.

Umuman olganda, mamlakatimizda to'lov xizmatlari bozorini kengaytirish orqali elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tovarlar (xizmatlar)ni internet tarmog'i orqali realizatsiya qilish bo'yicha zamonaviy mexanizm va tartib-taomillarni joriy qilish, mahalliy tadbirkorlik

sub'ektlarining tovarlari va xizmatlarini sotish geografiasini kengaytirish va hajmini oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, to'lov xizmatlari bozorida zamonaviy to'lov imkoniyatlarini shakllantirish orqali elektron pullar tizimining sub'ektlari hisoblangan jismoniy shaxslar va tadbirkorlik sub'ektlari uchun xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar tayyorlanishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida tegishli vakil bilan shartnoma imzolagan emitent tomonidan mazkur vakil chet el valyutasida nominallashtirilgan elektron pullarini ayirboshlash operatsiyalarining amalga oshirilishi natijasida mahalliy elektron pul tizimlarining xorijiy elektron pul tizimlariga integratsiya qilinishiga shart-sharoit yaratiladi.

Bir so'z bilan aytganda, elektron pullar tizimining yaratilishi va joriy etilishi innovatsion tizimli jarayon bo'lib, hisob-kitoblarni amalga oshirishda zamonaviy IT va texnologik yechimlarga asoslangan holda to'lovlarni tezkor va qulay usulda amalga oshirish imkonini beradi. Bunda aynan "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Hullas, xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda 5ta turdagi elektron pullar tizimi ro'yxatga olingan hisoblanadi. Avvalo, elektron pullardan foydalanish uchun identifikatsiyadan o'tish kerak hisoblanadi. Elektron pullarning asosiy afzalliklaridan biri bu bank hisobvarag'ini ochmasdan turib, to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligidir. Yangiliklarga qaraydigan bo'lsak, Markaziy bank departamenti bosh iqtisodchisi Shoirah Rahimjonova elektron pullar va ulardan qanday foydalanish bo'yicha malumot berib o'tganlar. Ta'kidlanishicha, hozirgi kunda O'zbekistonda 5ta turdagi elektron pullar tizimi ro'yxatga olingan. Umuman olganda elektron pullar to'lov vositasi hisoblanib, elektron hamyonlarda saqlanadi.

Elektron pul egasining identifikatsiya qilinmagan elektron hamyonida saqlanadigan elektron mablag'ning eng ko'p miqdori 5 BHM (Bazaviy hisoblash miqdori) ga teng bo'lgan miqdordan, bitta operatsiyaning eng ko'p summasi 1 BHMga teng bo'lgan miqdordan oshmasligi belgilangan. Shuningdek, identifikatsiya qilingan elektron hamyonlar orqali bitta operatsiyaning eng ko'p summasi 100 BHMga teng bo'lgan summadan oshmasligi ma'lum qilindi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, elektron pullarning asosiy afzalliklaridan biri, bir tarafdin bank hisobvarag'ini ochmasdan turib to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi bo'lsa, ikkinchi tarafdin tezkor tizimning yo'lga qo'yilganligi hisoblanadi. Shu bilan birga to'lovlarni amalga oshirayotgan paytda

vositachilik haqining boshqa to'lov vositalariga qaraganda arzonligini hisobga olsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayni paytda elektron hamyonlar yordamida mobil operatorlar, kommunal to'lovlar, televideniya va taksi xizmatlari uchun va boshqa o'tkazmalarni amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga elektron puldan foydalanish xorijiy valyutada emissiya qilingan elektron pullarni ayirboshlash imkoniyatini ham beradi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 5 million 691 mingta elektron hamyonlar ro'yhatga olingan. Shuningdek, joriy yilning birinchi choragida elektron pullar tizimlarida amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 28,5 milliard so'mdan oshgan ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro savdo huquqi. Darslik. Toshkent-2019
2. "Tovarlarni xalqaro xarid qilish va sotish haqida"gi Birlashgan Millatlar Tashkilotining konvensiyasi <https://lex.uz/docs/2630897>
3. Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Muallimlar jamoasi / J.F.D professor. I. Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. B
4. www.uncitral.un.org
5. www.lex.uz
6. ecb.europa.eu